

YOZUVNING VUJUDGA KELISH BOSQICHLARI

Z. A. Akbarova

Filologiya fanlari doktori, professor

Farg'ona davlat universiteti Filologiya fakulteti o'qituvchisi

M. B. Avarxo`jayeva

Farg'ona davlat unversiteti Filologiya fakulteti 2- bosqich talabasi

Annotatsiya: maqolada yozuv va uning psixofiziologik xususiyatlari, shakllanish bosqichlari, yozma va og`zaki nutq o`rtasidagi tafovutlar, yozuvni o`zlashtirishdagi vositalar haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: yozuv, psixofiziologik xususiyat, vizual tahlil, miya yarim shari, nutq.

Kirish: Yozuv insonlar o`rtasidagi o`ziga xos aloqa vositasi sifatida qadimdan faol qo`llanilib kelinmoqda. Odatda kishilar muloqotning bu turiga turli ijtimoiy va shaxsiy vaziyatlardan kelib chiqib murojaat qiladilar. Belgilardan foydalanishga bo`lgan ehtiyoj esa o`zaro muloqot qilish ehtiyojining bir turi, yoki o`z g`oya va bo`lgan. Arxaik tafakkurning dastlabki bosqichlari insoniyatga yozuv imkoniyatini berdi.

Bu jarayon avvaliga turli rasmlar ya`ni devorlarga suratlar solishdan boshlangan bo`lsa, uning evolyutsion rivojlanishi natijasida bugungi moddiy va nomoddiy bo`lgan holatdagi yozuvga yetib keldi. Shuning uchun ham yozuv, nutqning murakkab shakli hisoblanadi. Bu esa yozuvni ongli ravishda amalga oshirishni ko`rsatadi. Muloqotni bu turi axbarotlarni kengroq jamoaga yetkazishga xizmat qiladi.

Asosiy qism: Volterning ta`kidlashicha, "Yozuv- bu ovozning tasviriy ko`rinishi: qanchalik o`xshash bo`lsa shuncha yaxshi".[1] Brebyuf esa " Bu so`zni jonli va ko`zni jalb qilishning injiq san`ati"[2] deya ta`riflaydi. Volter va Brebyufning fikrlari Aristotelning "Mantiq" asariga kiritilgan " Og`zaki nutq aqliy tajribaning ramzi, yozuv esa og`zaki so`zlarning timsoli" [2] ta`rifiga mos keladi. Ya`ni, yozuv til elementlarini ko`rinadigan usulga aylanishidir. Ammo yozuv og`zaki nutqqa teng bo`la olmaydi. Har qanday yozuv tizimi og`zaki nutqni to`laqonli yetkazib berishga qodir emas. Shunday bo`lishiga qaramay, yozuv muloqotning samarali vositasi sanaladi.

Yozuvning rivojlanish tarixi shuni ko`rsatadiki, yozma nutq aslida " insonning sun`iy xotirasi" bo`lib, u ibtidoiy mnemonik belgilardan kelib chiqqan.[4] Uncha uzoq bo`lmagan davrdan yozuv rivojlanayotganida turli bosqichlarni bosib o`tdi, turli ramzlar orqali ifodalandi, lekin maqsadi o`zgarmadi.

Inson fikrlari va his-tuyg`ularini o`zgalarga tabiiy va sun`iy tarzda ifodalaydi. Muammoli vaziyatda o`yga talsa, jahli chiqqanda baqirsas, xursand payti kuladi va bu orqali tabiiy holat yuzuga keladi. Sun`iy usulda esa rasmlar, o`zi yozgan she`r, hikoya orqali barchaga ma`lum bo`lgan usullardan foydalanadi. Nega barchaga ma`lum usullardan foydalanadi? Sababi oddiy. Uni tushunishlari va unga ko`mak berishlarini istaydi. Shu jihatdan og`zaki va yozma nutq orasida katta tafovut paydo bo`ladi. Quyida shu faqlar bilan qisqacha tanishamiz. Hech kimga sir emaski tarix jihatidan, og`zaki nutq yozuvdan avval paydo bo`lgan. Hattoki, bugungi kunda ham butun dunyo bo`ylab so`zlashadigan olti mingdan ortiq tillarning o`zchiligi yozma

alifbodan foydalanadi. Og`zaki til ommaviy nutqda qo`llanadi, yozma til esa matnlar uchun ishlatiladi. O`zingiz qisqacha tajriba o`tkazing. Kitobni qo`lingizga oling va baland ovozda o`qing. Xo`sh, u sizga suhbatdosh bo`la oldimi? Albatta yo`q. Kimgadur so`zlasangizgina suhbat bo`la oladi. O`g`zaki nutqda qisqa bo`g`inli so`zlar va jumlar, ustun va ekstremal so`zlar (hech qachon, hammasi, har doim), aksariyat hollarda istisno bilan boshlanadigan gaplar, hissiyotlar jamlangan so`zlar (voy, haqiqatanmi, hazil qilyapsanmi...), aniqrog`i nostandart so`zlar ko`poq uchraydi. Yozuvda esa aksincha aniq va ilmiy yozuv talablariga mos bo`l oladigan holatlarni talab qiladi. Og`zaki nutq, hayotning 1-yilidanoq sekin astalik bilan muloqot jarayonida shakllana boshlasa, yozuv nisbatan keyinroq ongli o`rganish mobaynida shakllanadi. Yozuv sekin asta harakat bilan bosqichma bosqich o`zlashtirish asosida vujudga keladi. Yozma nutq ongli va ixtiyoriy bo`lib og`zaki nutqqa yordamchi bo`lib xizmat qiladi. Bu farqlar, birinchi navbatta, odamlar ma`lumotlarni turlicha tinglashlari va o`qishlari sabab vujudga keladi. Agarda o`qiyotgan ma`lumotingizni tushunmasangiz uni qayta o`qish imkoningiz mavjud. Eshitganingizni orqaga qaytarish ilojsiz. O`qiyotgan matningizdagi biron bir so`z tushunarsiz bo`lsa, uni darol internet yoki boshqa manbaalardan foydalanib aniqlashtirish imkoniga egasiz. Shu kabi jihatlar yozuvni afzalliklaridan hisoblanadi.

Psixologik jarayonning mahsuli bo`lgan yozuv ovozi tahlilni o`z ichiga oladi. Ya`ni so`zlovchining nutqidagi so`zlarni tartibli qilib, har birini o`z ko`rinshlarini moslab yoza olishini bildiradi. Bu hali hammasi emas. Jumlani eshitgach, uni qisqa xotiraga saqlash mahoratini ham talab qiladi. Aslida psixologik bosqich ba`zi tarkibiy qismlarni, yozish uchun niyat va vazifani yuzaga kelishini, yozayotgan inson uni uzoq masofaga yuborishi yoki ma`lum vaqtga saqlamoqchi ekanligini bilishini, nima haqida yozishini reja qilishi kabi qismlarni o`z oladi.

Yozish mahorati qanday o`zlashtiriladi? Yozish jarayonini o`zlashtirish uchun avvalo talaffuzga e`tiborni qaratish lozim. Bu tovushni boshqa o`xshash tovushlardan ajratishga, so`zdagi tovushlar ketma-ketligini aniqlashga yordam beradi. Vizual tahlil qila olish orqali grafik jihatdan yaqin bo`lgan harflarni ajrata oladi. Yozishda tovushlarni harflarga, o`qish paytida esa harflarni tovushlarga aylantirish fonema va grafema o`rtasidagi murakkab munosabatni yuzaga keltiradi. Malakali o`qituvchilar bilishadiki, asosan boshlang`ich o`quvchilarida yozma g-q, z-r va b-d kabi harflarni chalkashtirib yuborish uchraydi. Agar o`quvchi chap qo`l bilan yozsa bu holat anchagina murakkablashadi. Bunday o`quvchilar jumalarni qayerdan boshlab qanday usulda yozishga qiynalishadi. Bu holat bevosita miya yarim sharlarining ishlash darajasiga bog`liq bo`ladi.

Miya va uning faoliyati haqidagi zamonaviy ilm-fan miyaning har bir sohasi o`ziga xos tuzilishga ega ekanligini va uning ishi maxsus funktsiyalar bilan bog`liqligini aniqladi¹. Har bir insonda miyaning chap yarim shari ustunlik qiladi; Unga o`rnatilgan qurilmalar o`ng qo`lga ulanadi va nutq va fikrlash jarayonlarining normal oqimini ta`minlaydi. O`ng yarim shar tabiatan bo`ysunadi va nutqni tartibga solish bilan bevosita bog`liq emas. Chap qo`l odamlar uchun vaziyat boshqacha, ular uchun, aksincha, o`ng yarim shar etakchi, chap esa bo`ysunuvchidir. Miya yarim korteksining turli qismlari ham har xil funktsiyalarni bajaradi. Miya yarim korteksining barcha ushbu sohalarining birgalikdagi ishi har bir murakkab psixologik jarayonni, jumladan nutq, yozish va o`qishni normal amalga oshirish uchun zarurdir. Yozishning normal jarayonini ta`minlaydigan funktsional tizimga miyaning chap yarim shari po`stlog`ining turli qismlari va turli analizator tizimlari (akustik, optik, motor va boshqalar) kiradi va ularning har biri faqat normal oqimini ta`minlaydi. yozuv tuzilishidagi bitta bo`g`in va

¹ A. R. Luriya, Miya va aqliy jarayonlar. "Sovet pedagogikasi" jurnali, 1947 yil

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON, 2024

barchasi birgalikda murakkab, yaxlit yozish jarayonini amalga oshirish uchun normal shartlardir.

Xulosa: Shunday qilib, yozishni nafaqat nutqqa, na vizual idrok etish va harakat qobiliyatlari jarayonlariga bog'lab bo'lmaydi. Yozish murakkab psixik jarayon bo'lib, o'z tarkibiga aqliy faoliyatning og'zaki va og'zaki bo'lmagan shakllari - diqqat, vizual, akustik va fazoviy idrok, qo'lning nozik harakatlari va boshqalarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun uning buzilishi tizimli xarakterga ega bo'ladi. Ya'ni yozuv integral tizim, yaxlit aqliy jarayon sifatida buziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bezrukix M.M. Bolalarda ixtiyoriy harakatlarni tashkil etishning neyrofiziologik mexanizmlari. Moskva.1994.
2. Gelb I.E. Yozishni o'rganish tajribasi. Moskva.1982.
3. Luria A.R. Yozuv psixofiziologiyasi bo'yicha ocherklar. Moskva. 1950
4. Voevodina.L.A. "Yozuv shakllanishining psixologik tuzilishi. Yozish ko'nikmalarini mustahkam rivojlantirish uchun ba'zi texnikalar"
5. Lalaeva R.I.Yozma nutqning buzilishi. Moskva.1989 yil.
6. Bezrukix.M.M., O.Yu.Kreshchenko. 6-7 va 9-10 yoshli bolalarda yozishni shakllantirishning psixofiziologik mexanizmlari. Moskva
7. Bezrukix.M.M. Boshlang'ich sinflarda yozish va o'qishni o'rganishdagi qiyinchiliklar. Moskva. Pedagogika universiteti.2009 yil
8. Luriya A.R. Yozuv psixofiziologiyasi bo'yicha ocherklar. Moskva. 1950 yil.